

**VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN
JINSIY JINOYATLARNI OLDINI OLISH VA JAZOLASHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

Usmonov Saidyusuf Saydolim o‘g‘li

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlikni qanday oldini olish choralar, voyaga yetmaganlarga nisbatan javobgarlik choralarini, voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik sodir etganlarning reyestrini yuritish qoidalari aytib o‘tilgan.

Аннотация: В статье изложены меры по надежной защите прав, свобод и законных интересов женщин и детей, способы профилактики сексуального насилия в отношении несовершеннолетних, меры ответственности в отношении несовершеннолетних, правила ведения реестра лиц, совершивших сексуальное насилие в отношении несовершеннолетних.

Abstract: This article outlines measures to reliably protect the rights, freedoms, and legitimate interests of women and children, how to prevent sexual violence against minors, measures of accountability against minors, and rules for maintaining a register of perpetrators of sexual violence against minors.

Tayanch so‘zlar: Ayollar va bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, voyaga etmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik, voyaga etmaganlarning javobgarligi, voyaga etmaganlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni ro‘yxatga olish, oldini olish va jazolash.

So‘nggi yillarda xotin-qizlarni huquqlarini tartibga soluvchi hamda ularning huquqlarini ta’minalashga qaratilgan bir qancha qonunlar va qonunosti hujjatlar qabul qilindi. Xotin-qizlarni oilada zo‘ravonlik qurbanini va jinsiy jinoyatlar qurbanini bo‘lishlarini oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishimchalar kiritish to‘g‘risida” 2023-yil 11-aprel, O‘RQ-829-son Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunda ularga nisbatan va zo‘ravonlikka qarshi bir qancha choralar belgilangan bo’lsa xuddi shuningdek ularning jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar uchun ham jazolar og’irlashtirildi. Sababi shuki so‘nggi yillarda ayollarga va voyaga yetmagan shaxslarga jinsiy zo‘ravonlik jinoyatlari orta boshlashi sabab bo’lgan. Qonunda nazarda tutilgan holatlarning barchasi jamiyatimizda sodir bo‘lib turgan holatlarni to’liq qamrab oladi. Ammo voyaga yetmaganlarga va ayollarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik jazo og’irlashgani jazoni mutlaq oldini olishni qamrab olmagan. Shuning uchun ularga yana boshqa

ta'sir choralar yoki qo'shimcha o'qitish tizimlarini ishlab chiqish lozim. Chunki boshqa davlatlarning jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini o'rganib chiqqanimizda shu ma'lum bo'ldiki, kamdan kam holatlarda jinoyatchilar jabrlanuvchilarni kuzatib yurishi ma'lum bo'ldi. Yana shuni ta'kidlash joizki, jinoyatchilar jinsiy zo'ravonlik jinoyatlarini sodir etishda hatto o'z oila a'zolaridan foydalangan holatlari ham mavjud. Sud esa ularga jazo qo'llash paytida ushbu holatlarni inobatga olishi odil sudlovni amalga oshirishga yordam beradi.

Hozirgi kunda jinsiy jinoyatlar avj olgan bir pallada ularni kamaytirish oldini olish asosiy o'rinni egallaydi. Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirish, 16 yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmagan shaxs tavsiflangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, shuningdek tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, voyaga yetmagan shaxslarni pornografik xususiyatga ega harakatlarga jalb qilish, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalarini tashkil etish jinoyatlarini sodir etgan shaxslarga nisbatan jazolashni og'irlashtirilgan holda qo'llash lozim. Og'irlashtirilgan jazo qo'llash bilan birga ularni tergov hamda sud organidan tashqari boshqa shaxslarga so'zlab berishi yoki voyaga yetmagan shaxslarga aytishi yangi bir nechta jinoyatni vujudga kelishiga qo'yilgan qadam bo'ladi. Uni oldini olish uchun esa unga qarshi chora ishlab chiqish zarur. U chora boshqa voyaga yetmagan shaxlarni zo'ravonlikka uchramaslikka sabab bo'lishi lozim.

Hukumatning qarori asosida O'zbekistonda voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik sodir etganlarning reyestri yuritilishi belgilangan bo'lib, bu esa voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini nafaqat kamaytirishga balki oldini olishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning voyaga yetmagan shaxslar tarbiya maskanlarida ular bilan shu'gullanuvchi kasb egalari butunlay ushbu kasb bilan shug'ullanishi qat'iy man etildi. Bu esa ularga qarshi qo'yilgan qat'iy qadam hisoblanadi. Yana shuni ta'kidlash lozimki, voyaga yetmagan shaxslarni jinsiy zo'ravonlikka majburlagan hamda sharoit yaratib bergen shaxslar ham birdek jazolanishi belgilandi. Chunki bunday holatlar qayd etilib shundan so'ng qonunchilikka kiritilmoqda. Shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning bolalarga ta'lim, tarbiya berish, ularni sog'lomlashtirish, bolalar sporti, ijodiy tashkilotlarda ishlashi taqiqlandi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik sodir etganlarning reyestri ilgari quyidagi jinoyatlarini sodir etgan shaxslar kiritiladi:

- ✓ 18 yoshga to'lmagan jabrlanuvchining nomusiga tekkanlik yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiyy usulda qondirganlik;

- ✓ 18 yoshga to‘lmaq shaxs bilan jinsiy aloqada bo‘lish yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiyy usulda qondirish bilan bog‘liq holda jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik;
- ✓ 16 yoshga to‘lmaq shaxs bilan jinsiy aloqa qilganlik yoki jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiyy usulda qondirganlik yoki unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilganlik;
- ✓ voyaga yetmagan shaxs tavsiqlangan yoki tasvirlangan pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida O‘zbekistonga olib kirganlik, xuddi shuningdek uni tayyorlaganlik, tarqatganlik, reklama qilganlik, namoyish etganlik;
- ✓ voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etganlik, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo‘shmachilik qilganlik, fohishaxonalarini tashkil etganlik yoki saqlaganlik;
- ✓ terrorizmni sodir etgan shaxslar.

Reyestr maxsus axborot tizimi orqali shakllantiriladi va yuritiladi. Reyestrga kiritilgan shaxslarni ishga qabul qilish bilan bog‘liq jarayonlar ushbu axborot tizimidan olingan ma’lumotlar asosida nazorat qilib borilishi ularga ushbu sohadagi jinoyatlarni balki jinoyat sodir etish ayanchli oqibatlarga olib kelishini aynglaydi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan zo'ravonlik bilan sodir etilgan jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar uchun javobgarlik to'g'risidagi amaldagi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish hozirgi zamon talablaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun qonunchilikka tegishli o‘zgartirish kiritishni talab qilsa, deputat va senatorlar albatta xorijiy davlatlarning jinoyat huquqida voyaga yetmaganlarga har qanday tajovuz uchun qanday jazo qo’llanishini o’rganib chiqib, qonunchiligidan kiritishi lozim. Yana shuni aytish joizki ushbu sohada o’rganilgan ilmiy ishlar va tadqiqotchilar bu yerda asosiy o’rinni egallaydi. Ular tadqiqotlari davomida boshqa davlatlarning qonunlarini to’liq o’rganib chiqib so’ng ilmiy ishi doirasidagi moddalari bo'yicha fikr yuritadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki xorijiy davlatlarda: voyaga yetmaganlarga nisbatan tajovuz qilish, aldash, ishontirish, qarindoshiga nisbatan, vasiy yoki homiy tomonidan, ota-onasini o’rnini bosuvchi shaxslar tomonidan yoki moddiy qaram qilish natijasida, farzandining do’stini, qo’shnisini farzandini, qo’rqitish orqali sodir etilishi o’rganib chiqildi. Endi qonunchiligidan aynan mana shu jihatlarini inobatga olib o‘zgartirish kiritishi hamda jazo qo’llashda sudlar ham ushbu jihatlarini hisobga olishi lozim. Shuningdek, jinsiy jinoyatlarni sodir etishda ayblanuvchini yoshi va psixofiziologik holatini hisobga olib jazo tayinlansa maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki hozirgi kunda voyaga yetmagan shaxslar ham ushbu jinoyatlarni sodir etmoqda. Bunga ularda erta jinsiy qarashlarni uyg’onishi yoki boshqalar tominidan uyg’otilishi sabab bo’lmoqda. Biz qonunchilikdan tegishli davlat organlari 12 yoshdan 14 yoshgacha jinsiy jinoyatlar sodir etsa, uni voyaga yetmaganlar maktab internatida alohida psixolog nazorati ostida tarbiya topishini

hamda 17-18 yoshga to’lgandan so’ng esa uni maxsus kasb mактабида о’qитиб, исхга joylashtirishi zarur. Shuningdek, 14 yoshdan oshgan voyaga yetmagan shaxs jinsiy jinoyatlar sodir etgan taqdirda 16 yoshga to’lмаган bo’lsa, ularga sud voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etganda ozodlikdan mahrum qilish jazolarini qo’llamasdan boshqa jazo tayinlagan holda unga nisbatan nazoratni kuchaytirish zarur. Agar voyaga yetmagan shaxs tomonidan voyaga yetmagan shaxsga jinsiy tajovuz qilinsa ammo vaqt o’tishi sabab aniqlanmasa, voyaga yetmagan shaxslar turmush qурган taqdirda jazo qo’llash jinoyatning muddatiga qarab belgilanishi lozim. 16 yoshdan oshgan shaxs jinsiy zo’ravonlik qilsa alohida qism bilan, zo’ravonlik holatlari yo’q bo’lgan taqdirda ishontirish yoki moddiy jihatdan qaram qilib olish, qarindoshiga nisbatan, past niyatda, qasos olish maqsadida... sodir etilgan bo’lmasa, unga nisbatan jazo zo’rlab sodir etilgan shaxsga nisbatan qo’llanilgan jazodan ortiq bo’lmasligi kerak yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish qo’llanilmasligi lozim. Agar voyaga yetmagan shaxs voyaga yetmagan shaxsni jinsiy zo’ravoniksiz jinsiy aloqa qilsa, bunda agar jabrlanuvchi ota-onasidan qo’rqib uni oshkor qilmasligi yoki homilador bo’lib qolgan paytda bilib qolish ehtimoli bor. Shuningdek voyaga yetmagan shaxslar o’zaro kelishilgan holda ushbu jinoyatni sodir etib jabrlanuvchi bilan jinsiy aloqa qilishni rejalashtirmoqda. Bu esa hozirgi kundagi jamiyatimizga kirib kelayotga taxidlardan biridir. Chunki voyaga yetmagan shaxs turmush qurish paytida bir qancha tekshiruvlardan so’ng holatlar aniqlanib oila qurilmasligiga sabab bo’lmoqda. Bu esa O’zbekiston Respublikasining tabiiy demografiyasiga kata ta’sir o’tkazadi. Bunday holatlarda qonunchilikka tegishli o’zgartirish kiritishni talab qiladi. Bu yerda asosiy vazifa voyaga yetmaganlarni jinsiy erkinligini saqlab qolgan holda, jamiyatimizga ham sog’lom oilani yetishtirib berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - 2023.
2. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 2024.
3. O’zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to‘g’risida” 2023-yil 11-aprel, O’RQ-829-son Qonuni.
4. Степанова Ольга Юрьевна - Уголовная ответственность за преступления против половой неприкосновенности и половой свободы несовершеннолетних: совершенствование законодательной регламентации и правоприменения- Диссертация, 2018- Санкт-Петербург.
5. <https://www.lex.uz>.